

**OMON MATJON ASARLARIDA ARXAIK LEKSEMALARNING  
QO'LLANILISHI****ABDUSHARIPOVA DILOROM XO'SINOVNA***Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani  
1-son kasb-hunar maktabi kutubxonachisi***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llangan arxaizmlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, shoirning bunday birliklardan mohirlik bilan foydalana bilishi, shuningdek, badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash, she'r badiiyatini kuchaytirish kabi maqsadlarda qadimgi so'zlarni qo'llash usuli tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** *lingvopoetika, Omon Matjon she'riyati lingvopoetikasi, eskirgan so'zlar, arxaizmlar, she'riyat tili.*

**KIRISH**

Biror matn tilshunoslik fani nuqtai nazaridan tekshirilar ekan, biror adabiy til kategoriyalari – leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklardan qaydarajada foydalanganliklari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shuning uchun ushbu maqolada Omon Matjon she'riyati tilining leksik birliklari ichida o'ziga xos o'rin egallovchi arxaizmlar haqida so'z yuritiladi. Yunoncha "qadim", "qadimgi" degan ma'nolarni bildirib, hozirgi umumxalq tilida ishlatilmaydigan va eskirib qolgan so'z hamda iboralar arxaizmlardir. Ulus, bitik, ochun kabi qator so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan arxaik so'zlar sanaladi.

Ammo badiiy matnlarda qahramon tilini tipiklashtirish, tasvirlanayotgan voqea, ro'y bergan joy va tarixiy voqelikka mos ifodalar ishlatish talab etilganda adiblar arxaik so'z va iboralarga murojaat etadilar. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida xolislikka erishish uchun ayni matn tili umumxalq tiliga, shuningdek, adabiy tilga qiyosan baholanishi kerak. Badiiy matnda tasvirlangan davrni, badiiy matn yaratilgan davrni, bu davrdagi adabiy til me'yorlarini bilmasdan turib, eskirgan (arxaizm va istorizm) yoki yangi so'z (neologizm)ni ajratib ham, bunday so'zlarning lingvopoetik qimmatini belgilab ham bo'lmaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Har qanday adib asarning leksik qatlamini bayon etishda, qalamga olinayotgan davr tilini ham nazarda tutishi lozim. Chunki tarixiy mavzularga bag'ishlangan asarlarda yangicha so'zlarni ishlatib bo'lmaganidek, hozirgi davr mavzusiga bag'ishlangan asarlarda ham arxaik so'zlarni qo'llash yaxshi natija bermaydi. Masalan, Omon Matjonning Xiva xonligi davridagi voqealarni tasvirlovchi "Nurjon botir"

she'ridan olingan quyidagi parchada navkar so'zi o'rnida askar leksemasi qo'llanilsa, kulgili bo'lar edi.

Oddiy misol, birdan uning loyga botdi ulovi,  
Quruqlikka chiqarolmay qirqta navkar ovvora.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, an'anaviy so'zlar ifodalaydigan ma'noni hozirgi adabiy tilda mavjud sinonimlari bilan ifodalash, badiiy matnning shakl va mazmuniga mos holda ishlatish imkoniyati hamma vaqt ham bo'lavermaydi. Omon Matjonning yuqorida nomi keltirilgan she'rida "Bu yorliqni xon hazratim o'z qo'li-la tutqazdi! (191) misrasidagi yorliq so'zi hozirgi adabiy til uchun arxaik, poetik nutq uchun an'anaviydir. Shu bilan birga, tasvirlanayotgan davr, voqelik ishonchli chiqishi uchun shoir shu so'zni qo'llashi lozim. Lekin bu so'z o'rniga nota yoki xat so'zlaridan birini ishlatganida o'sha koloritni bera olmas edi. Shuningdek, so'zning ma'nosini mazkur so'zning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi boshqa sinonimlari orqali ifodalanilsa, ushbu misra jozibadorligini yo'qotgan bo'lardi.

Yorliq "vakolat hujjat", "biror narsa haqida ma'lumot beruvchi hujjat" nomi bo'lib, qadimgi turkiy tildagi "xabar" ma'nosini anglatgan yar otidan -lig' qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinroq g' undoshi q undoshiga almashgan.

Yozuvchining tildan mohirlik bilan foydalana bilishi, qalamga olinayotgan davr tili xususiyatlarini iloji boricha asar ruhiga singdira olishi asarning qimmatiga qimmat qo'shadi. Ayrim arxaizmlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda ma'noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

Masalan, yo'qsil – kambag'al arxaik va zamonaviy so'zlar juftligiga e'tibor beradigan bo'lsak, "hech narsaga ega emaslik" ma'nosi yo'qsil leksemasida kambag'al leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so'zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganda anglanadigan yo'q va kam so'zlari qiyoslansa, birinchisida ayni belgining nol darajada ekanligi seziladi.

Arxaik so'zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham lingvopoetik vosita sifatida ishlatiladi. She'riyatda nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlash maqsadida ishlatiladi. B.Umurqulov she'riyat tili an'anaviylikka moyil til ekani, shuning uchun ham she'riyatda uchraydigan ko'pgina so'zlar adabiy til uchun eskirgan hisoblanib, aksariyat o'rinlarda poetik obrazlilikni ta'minlab, uslubiy funktsiya bajarishini ta'kidlab, bunday so'zlarni an'anaviy poetizmlar termini ostida o'rganadi.

Poeziya an'anaviylikka asoslanishi sababli, bu janrda an'anaviy so'zlar (adabiy til nuqtai nazaridan arxaik) ancha aktiv qo'llaniladi. N.Ivanova poeziya tilining shu xususiyatini adabiy til bilan solishtirib, adabiy til uchun arxaik hisoblangan ko'pgina leksik vositalar poetik nutqda stilistik vazifa bajarishini ta'kidlab o'tadi. Shu xususiyatiga ko'ra E.Kurilovich poeziya tilini arxaiklikka moyil til deb izohlaydi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ahmad Ishaev eskirgan soʻzlar xususida quyidagilarni yozadi:

“Tarixiylik nuqtai nazaridan dostonlarda uchraydigan eskirgan soʻzlar mazkur manbalar uchun tarixiy yoki arxaik soʻzlar emas. Chunki dostonlar yaratilib, asrlar osha kuylanib kelinganda, bu soʻzlar juda mahsuldor boʻlgan va shu sababli ular dostonlarning badiiy toʻqimalariga chuqur singib ketadi”.

Omon Matjon sheʼriyati tilida sayyod, sayd arxaizmlari koʻp ishlatiladi.

Sen agar sayyod boʻlib

Yoy agar boʻlganda man.

Rasmda xon sayyodmish Ov zavqiga choʻmilgan!

Jon qushim, ziyrak boʻl! makkor sayyodlar otsalar yiqilsang – yuraging dogʻliq...

Sayd soʻzi arabcha “ov”, “shikor”, “ov qilish” kabi maʼnolarni anglatadi. Eski oʻzbek tilida sayd aylamak “ov qilmoq, “ilintirmoq”; sayd qilmoq “ovlamoq” maʼnolarini anglatadi. Sayyod soʻzi ham sayd asosidan kelib chiqqan boʻlib “ovchi” maʼnosini bildiradi. Yuqoridagi birinchi va ikkinchi sheʼriy parchalarda sayyod oʻz maʼnosida, uchinchi misolda koʻchma maʼnoda qoʻllangan.

Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini taʼminlash maqsadida qoʻllaniladi. “Ogahiy gʻazaliga muxammasi muloqot” nomli muxammasida shoir eski oʻzbek tiliga xos bir qancha soʻzlarni qoʻllaydi. Bu leksemalar hozirgi oʻzbek tili uchun arxaizmlar hisoblanadi. Jumladan:

“Ey pir, dedim, yodlar bugun ashʼorlaringni Xorazm...” parchasida sheʼr soʻzi oʻrnida ashʼor leksemasi ishlatilgan. Bu oʻrinda koʻplik shaklini qoʻllash bilan bogʻliq tavnologiya ham mavjud. “Suhbat falak mavzusiga koʻchgaymi, deb solsam nazar” misrasi tarkibida osmon soʻzi oʻrnida falak arxaizmi ishlatilgan.

### XULOSA

Umuman, Omon Matjon sheʼriyati tilida uchraydigan adabiy til nuqtai nazaridan arxaik hisoblangan bir qator leksik vositalar hozirgi kunda mavjud tushunchalarni ifodalashi bilan birga, davr ruhini aks ettirishi, koʻtarinkilik, ulugʻvorlikni taʼminlashi kabi maqsadlarda ijodkor tomonidan poetik aktivlashtirilgan til birliklaridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 4-7.
2. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.

3. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
4. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.
5. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
6. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.